

## ONA TILI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLARNING O'RNI

**B.Sapayeva**

*UrDU “BTM” kafedrasi katta o‘qituvchisi*

**S.Xasanova**

*UrDU “BTM” kafedrasi o‘qituvchisi*

**M.Sultonova**

*UrDU BT yo‘nalishi 4-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish orqali dars samaradorligini oshirish yo‘llari bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** dars, metod, interfaol metod, Blitz-so‘rov”, “Sinkveyn”, “Venn diagrammasi”, “Baliq skeleti”.

**Аннотация.** В данной статье описаны пути повышения эффективности урока за счет использования интерактивных методов на уроках родного языка в начальных классах.

**Ключевые слова:** урок, методика, интерактивный метод, ” Блиц-опрос”, “Синквейн”, “Диаграмма Венна”, “Скелет рыбы”.

**Abstract.** This article describes the ways to improve the effectiveness of the lesson by using interactive methods in the primary-grade mother tongue classes.

**Key words:** lesson, method, interactive method, “Blitz survey”, “Sinquain”, “Venn diagram”, “Fish skeleton”.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonini interfaol metodlarsiz tasavvur qilish qiyin. Chunki, hozirgi ta’lim jarayonida interfaol metodlarni o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Dars jarayonida interfaol metodlarini qo‘llash yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. Interfaol metodlar qo‘llanilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilar egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi. “Interaktiv” so‘zi inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, “Interakt”, ya’ni inter – bu “o‘zaro”, akt – “harakat, ta’sir, faollik” ma’nolarini bildiradi. Interfaol metodlar orqali tashkil etilgan darslar o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrini yozma va og‘zaki ravishda bayon etishga chorlaydi.

O‘quvchilarga har darsda bir xil metodda dars o‘tish ularning zerikishiga olib keladi va mavzuga bo‘lgan e’tiborini pasaytiradi. Bunday holatlarning oldini olish uchun dars jarayonida turli xil qiziqarli metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Turli xil qiziqarli metodlardan foydalanish o‘quvchilarning diqqatini oshiradi. Masalan o‘quvchilarga “Bo‘g‘in” mavzusini o‘tayotgan o‘qituvchi “Bo‘g‘inlar zanjiri” metodidan foydalanishi mumkin. Bunda birinchi aytilgan so‘zning oxirgi bo‘g‘ini keying so‘zning birinchi bo‘g‘iniga to‘g‘ri kelishi kerak bo‘ladi. Namuna: sumka – kamar; diqqat – qattiq va shu kabi davom etadi. Bu metoddan o‘quvchilarda o‘tilayotgan yangi mavzuni mustahkamlash bilan birga ularning tezkor fikrlashlari, so‘z boyligini aniqlash maqsadida ham foydalansa bo‘ladi.

Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan interfaol usullar muayyan guruhlarda o‘qitiladigan o‘quv fanining bosh maqsadiga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Aks holda, qo‘llanilgan interfaol usul hech qanday ahamiyatga ega bo‘lmay qoladi. O‘qituvchi tanlagan usul dars davomida bolaning faolligini, kattalar va tengdoshlari bilan to‘g‘ri muloqot qila olishini ta’minlashi, tilda mavjud, biroq o‘quvchi uchun notanish bo‘lgan yangi so‘z va iboralarning mazmunini anglash, eslab qolishga, muloqot jarayonida qo‘llashga harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantirishi zarur. Interfaol usullardan foydalanilgan holda o‘tilgan darslar o‘quvchilarni ijobiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrni erkin bayon qilishga, tashabbuskorlikka, hamkorlikda ish yuritishga chorlaydi. Metod shunday tanlanishi kerakki, unda o‘quvchi o‘zini erkin tuta olishi, fikrlarini ravon aytishi, mavzuni juda yaxshi o‘zlashtirilishi lozimligi muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo‘lib, ularning aksariyati tajriba-sinovlardan o‘tib, yaxshi natija bergen. Hozirda ta’lim jarayonida “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi...) ortiqcha”, “Davom ettir”, “Blits-so‘rov”, “Sinkveyn”, “Venn diagrammasi”, “Baliq skeleti”, “Insert”, “Pinbord”, “Nilufar gul”, “Kungaboqar”, “FSMU”, “T-jadval”, “Zinama-zina”, “Tushunchalar tahlili”, “Bumerang”, “Muammoli vaziyat” kabi metodlardan foydalanib, dars samaradorligini oshirish mumkin.

“Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi ...) ortiqcha” metodidan so‘z turkumlarini o‘rganish jarayonida foydalanish ijobiy natija beradi. Masalan, “Ot” mavzusini o‘rganish jarayonida mavzuga oid to‘rtta va taalluqli bo‘lmagan (ortiqcha) bitta so‘z beriladi. O‘quvchilar ana shu so‘zni aniqlaydilar: kitob, gul, chiroyl, maktab, o‘qituvchi kabi.

“Klaster” metodi. Klaster” “Fikrlarning tarmoqlanishi” degan ma’noni anglatadi. Bu metod o‘quvchilarga mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam berib, ularni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrlarni erkin va ochiq uzviy bog‘langan ketma-ketlikda tarmoqlashni o‘rgatadi. “Fikrlarning tarmoqlanishi” quyidagicha

tashkil etiladi: 1.Xayolga kelgan har qanday fikr bir so‘z bilan ifoda etilib ketma-ket yoziladi; 2. Fikrlar tugaguncha, yozishda davom etiladi va fikrlar tugasa, u holda yangi fikr kelgunga qadar biron rasm chizib turiladi; 3. Darsda imkon boricha fikrlarning va o‘zaro bog‘liqlik ketma-ketligini ko‘paytirishga harakat qilinishi lozim. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida “So‘z turkumlari” mavzusini o‘rganish jarayonida “Klaster” metodi katta ahamiyat kasb etadi. Chunki bu metod orqali o‘quvchilar mavzuga oid tushunchalar ustida ishlaydi. So‘z turkumlari tushuntirilganda o‘quvchining diqqatini shu mavzuga qaratish maqsadida markazga so‘z turkumlariga oid tushunchalar yoziladi. O‘quvchilarlar mavzuga oid barcha fikrlarini markazning atrofiga joylashtirib yozadilar. Fikrlar bayon etilgandan so‘ng har bir fikr yoki so‘zni toifalarga ajratib chiqadilar. “Klaster” metodi quyidagi maqsadlarga erishish uchun qo‘llaniladi: 1.O‘quvchilar so‘z boyligini oshirish; 2.Yozma nutqni takomillashtirish; 3.Fikrlash qobiliyatini shakllantirish; 4.Toifalarga ajrata olish qobiliyatini rivojlantirish.

Darsda interfaol metodlarni qo‘llashdan ko‘zda tutilgan maqsad o‘quvchilarga faqat bilim, ko‘nikma, malaka berishdan iborat bo‘lmasdan, ularni tabiiy sharoitga yaqinlashtirishdan iboratdir. Ya’ni darsda vujudga keladigan muammoli vaziyatlarni o‘zlarida mavjud bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar orqali hal qilishga, o‘quvchilarni mustaqil va obrazli fikrlashga o‘rgatishdan iboratdir. Shundagina o‘quvchi darsda faol ishtirok etuvchi shaxsga aylanishi, erkin fikrlay olishi va o‘z fikrini dadil aytishi hamda uni himoya qila olishi, tashabbuskor, mustaqil bo‘la olishi mumkin. Bu xususiyatlarning shakllanishi o‘quvchining ruhiy holatiga ham ta’sir etadi va buning natijasida ularda o‘ziga xos psixologik xarakter shakllana boradi: har qanday holatda o‘z fikrini aytish, o‘zgalar fikrini muhokama qilish, xulosalash, qiyoslash, inkor qilish kabi xususiyatlar tarkib topa boradi.

Dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi shundaki, birinchidan, o‘quvchilarga ona tilidan dastur talablari asosida ilmiy bilim beriladi, ikkinchidan, ona tilidan ko‘zlangan maqsad amalga oshiriladi, uchinchidan, faqat nazariy ma’lumotlarga berilmasdan, o‘quvchilarning uni amaliyotda, hayotiy-tabiiy holda qo‘llash orqali darsga bo‘lgan intilishi kuchayadi, darsga qiziqish bilan qatnashishlari ta’minlanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hamrayev A.Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limini ijodiy tashkil etish.-Toshkent: 2007, 116 b.
2. Ziyomuhamedov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya – zamonaviy o‘zbek modeli. – Toshkent: “ Lider Press”, 2009, 157 b.
3. G‘afforova T. Erkin, ijodiy fikrlashga o‘rgatish // Boshlang‘ich ta’lim, 2009, 4-som, 12 b.